
Tarix fani o'qituvchisi A.Mamasoliyev boshchiligida tarixiy maskanlariga sayohat uyushtirdilar

Joriy o'quv yilining 19- sentabr sanasida akademik litseyning bilimga chanqoq, izlanuvchan o'quvchilari Tarix fani o'qituvchisi A.Mamasoliyev boshchiligida qadimiy va betakror, go'zallikka boy Samarqand shahrining tarixiy maskanlariga sayohat uyushtirdilar.

Sayohat davomida o'quvchilar Amir Temur bobomiz barpo etgan tarixiy obidalar va ularning tarixi bilan yaqindan tanishdilar. Bu tashrif ajdodlarimizning boy tarixini o'rganishda ma'naviy ma'rifiy maktab vazifasini o'tadi.

Mazkur sayohat darsi nafaqat bilim, balki estetik zavq, ruhiy ozuqa ham ulashdi. O'quvchilar orasida boy tariximizga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi.



SamDChTI akademik litseyi axborot xizmatlari